



M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basini metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjabova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”	6
Qirg‘zboyev Abdug‘affor Karimjonovich	
Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari	8
Ibragimova Gulsanam Ne‘matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО	11
Хамдамова Махзуна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o‘zaro ta’siri	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muhammadjonovna	
Неполные предложения как объект исследования	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Дилноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o‘rni.....	36
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o‘rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati	38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari.....	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muhammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda hayot xavfsizligi ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavvar O‘rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одиловна	
Bo‘lajak tarbiyachilarning mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников.....	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocuklar için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Gökteş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника.....	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	



Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	95
Radjarova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей	100
Садикова Шоиста, Тохилова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish	104
Shirbachevna Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijtimoiy ongning shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarining o'rni	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabati	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durдона Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishlari.....	137
Nabiyev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhni idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asraxonova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limiga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdusalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati	199
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	205
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социально-педагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	

YANGI O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR



D. R. Babayeva

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv, ta'lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani, sohadagi izchil islohotlarning natijalari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'limni rivojlantirishi, ta'limdagi muammolar, an'anaviy metod, sifat darajasi, innovatsiyalar, takomillashtirish, sohadagi izchillik, ta'lim sohasi.

Abstract: This article describes the modern approach to the development of preschool education in Uzbekistan, with special attention paid to improving the level of quality through the creation of educational services, as well as the results of consistent reforms in the field.

Key words: preschool education, educational development, problems in education, traditional method, quality level, innovation, improvement, consistency in the field, education sector.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современном подходе к развитию дошкольного образования в Узбекистане, особое внимание уделяется повышению уровня качества путем создания образовательных услуг, а также результатам последовательных реформ в сфере.

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие образования, проблемы в образовании, традиционный метод, уровень качества, инновации, совершенствование, последовательность в области, сфера образования.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotida puxta tayyorlanib maktabga chiqqan bolalarning yutuqlarga erishish imkoniyati kengayadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga oid davlat talablarida mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, jahon tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olinadi.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biridir. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasida (2023-yil 11-sentabr PF–158-son Farmoni) ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashi hamda ezgu maqsadlarning ro'yobi yurtdoshlarimiz turmush farovonligini yuksaltirishga, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safiga qo'shilishiga mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta'limning mazkur bo'g'inini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual shaxsini shakllantirish, ta'lim xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasi bo'lmoqda.

Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat... Maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi"ning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda hududlar, shahar va qishloqlar o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatning sohaga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirish siyosati ham imkoniyatlarni kengaytirmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tagmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya samaradoriigini oshirish yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish mavzusida amaliy ko'nikmalar belgilamoqda.

Maktabgacha ta'limga talab ortmoqda, 3–7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish nafaqat yangi tashkilotlarni qurish va eskilarini ta'mirlash hisobiga (qo'shimcha bola o'rinlarini joriy etish) balki, ota-onalar orasida maktabgacha ta'limning ahamiyati haqida faol tushuntirish va tashviqot ishlarini olib borish, kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hisobiga ham erishildi. Xorijiy olimlar tomonidan inson kapitaliga qilingan investisiyalarning kelajakda eng ko'p naf keltiradigan shaxs shakllanishining dastlabki, ya'ni maktabgacha ta'lim bosqichida qilingan investisiyalar ekani isbotlangan.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-iqtisodiy holati pastroq bo'lgan oila farzandlariga maktabgacha ta'lim yoshida qilingan investisiyalar, o'ziga to'q oila farzandlariga qilingan investisiyalarga nisbatan ko'proq foyda keltiradi. Sababi, maktabgacha ta'lim bolaning nafaqat ijtimoiylashishiga ko'maklashadi, balki shaxsning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga asos yaratadi va maktabga tayyorlaydi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bola rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar esa bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi; tashkilot ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari ni inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagoglarga zarurat yuqori. U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim. Dolzarb muammoning yechimiga erishish uchun esa, eng avvalo bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, me'yorlar va qoidalarga amal qilish ko'nikmalarini kamol toptirish talab etiladi.

Bunda asosan jamiyatning faol transformatsion qatlami hisoblangan pedagog-xodimlarning faoliyatiga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir. Chunki milliy ta'limimizda talablarni bajarishga qodir hisoblangan jamiyatning faol, ijodiy, tashabbuskor subyekti pedagog-xodimlargina bunday ehtiyojini ro'yobga chiqarishga qodir. Ular bolalarni nafaqat umuminsoniy qadriyatlar, tamoyillar bilangina tanishtirib qolmasdan, ularga o'zligini anglatish va qobiliyatlarini aniqlash bilangina cheklanib qolmay, mustaqil fikr va faoliyat yuritishga undash singari ta'lim va tarbiya birligining asosiy tamoyiliga tayanib ish ko'rishlari talab etiladi.

Innovatsion salohiyatning qismi bo'lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorlik, muammo bilan tani-shish, uni hal etishning mavjud yo'llarini tahlil qilish, yo'lini tanlash, qaror qabul qilish oqibatlarini amaliyot bilan belgilanadi. Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi.

*Birinchi*dan, faoliyat mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish faoliyati ancha murakkablashadi, chunki uning texnologik asosi tez rivojlanadi. U pedagogning maxsus malakalari, ish usullarini rivojlantirilishini talab etadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyat sifatiga va uning mahsuliga qo'shimcha talablarni qo'yimoqda.

*Ikkinchi*dan, zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shuki, pedagog markaziy o'rin tutgan an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu yerda asosiy diqqat bolaga – uning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi.

Tarbiyachining muhim funksiyasi bolani o'z faoliyatida qo'llab-quvvatlash, uning olamdagi muvaffaqiyatli ilgarilanma harakatiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma'lumotni o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi.

*Uchinchi*dan, bilish materialini taqdim etish va tajribani o'rgatish yo'llari pedagog va bolalarning intensiv muloqotini ko'zda tutadi, pedagogning barcha bolalar bilan umumlashgan aloqasi ustuvor bo'lgan, lekin tarbiya-chining alohida bolalar bilan o'zaro munosabati ancha kam bo'lgan an'anaviy ta'lim turiga nisbatan zamonaviy ta'limda ushbu ta'lim subyektlari o'rtasida ancha faolroq va qiziqarli o'zaro munosabatlar bo'lishini talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruriy shartlari pedagogning salohiyati va harakatlari, uning yangilikni sezishi, ochiqligi va fasilitatsiyasi bo'ladi. Pedagog va bolaning ta'lim jarayonida tutgan o'rnining o'zgarishi o'zaro munosabatlar, eng avvalo pedagoglar o'zaro munosabatlari – integra-tsiyasi va o'zaro moslashuvi tizimini qayta qurush, shuningdek, "pedagog–bola–ota–ona" uchrashuvlarida o'zaro munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu, bir tomondan, maktabgacha ta'lim tashkilotida inno-vatsion jarayonning zaruriy sharti, boshqa tomondan – uning natijasi va muvaffaqiyatining ko'rsatkichi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 29-dekabr 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ–3955 "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 30-sentyabr 2018-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF–158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan yangi Davlat talablari. – T., 2018.
5. Djamilova N. N. Maktabgacha metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. – T.: TDPU, 2017.



Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**